

Tilshunoslikda Badiiy Matn Tadqiqi Va Poetik Til Masalasi

Otaqulova Adiba Olimovna¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon va o'zbek tilshunosligida badiiy matnning o'rganilishi masalalari, badiiy matnning tamoyillari va o'ziga xos jihatlariga diqqat qaratilgan. Lingvopoetika sohasi doirasidagi tadqiqotlardan umumiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy so'z, leksema, lingvopoetika, stilistika, poetik figura.

Til ilmi shunday ilmki, u inson bilan tug'iladigan, voyaga yetadigan, tamokillashib boradigan hodisadir. Inson esa jamiyatda ulg'ayadi, ijtimoiylashadi va rivojlanadi. Alisher Navoiy aytganidek, odam tili bilan imtiyozli, tili bilan ajralib turadi. Bu esa faqatgina, insonning so'zlash qobiliyatiga ega ekanligini anglatmaydi. Bu insonning boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan obrazli, badiiy tili bor deganidir. Dastlabki odamlarning g'orlarda yashagani, tovushlar orqali so'zlashgani, tabiat hodisalariga ilohiy hodisa sifatida qaraganidan bilish mumkinki, badiiy fikrlash so'zdan avval paydo bo'lgan insoniy hodisadir. Fikrimizning tasdig'ini Aristotelning "Poetika" asarining "Poeziyaning tabiiy paydo bo'lishi" bo'limida ko'rishimiz mumkin: "Inson boshqa jonli mavjudotlardan o'xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan farqlanadi, hatto, dastlabki bilimlarni u o'xshatishdan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag'ishlaydi."²

XIX asr oxiri XX asr boshlarida til estetikasiga oid qarashlar mukammallashtirildi. Fransuz tilshunosi Sh. Balli lingvistik estetikani rivojlantirishga qaratilgan "Fransuz estetikasi", "Fransuz tili stilistikasi" (1960) asarlari bilan tilshunoslikni boyitdi. Bu 1925- yilda Fransuz tilshunos olimi A. Meye tomonidan til estetikasi umumiy til va nutq madaniyati uchun muhim ekanligi aytilgan nazariyalarning amaliy ifodasi bo'ldi. 1984- yilda rus tilshunosi Budagov til estetikasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Til va nutqqa nisbatan estetiklikni so'zlovchi va yozuvchining faqat nimani gapirayotganligiga va nima haqida yozayotganiga qarab emas, balki qanday yozayotganiga va bunga qanday munosabatda bo'lganligiga qarab baho berish til estetikasidir".³ Yozuvchi tilining o'ziga xosligi shundaki, u har qanday kishiga, har qanday davrda ta'sir eta oladi. Zero, M. Prishvin aytganidek, badiiy asardagi so'zlar maftunkor va go'zal raqqosalardir. Ammo unutmaslik kerakki, ular badiiy matn kuyiga mos raqsga tushadi, kuyni to'g'ri anglamagan raqqosaning harakatlari ham nomuvofiq bo'ladi. Badiiy so'z badiiy asar matniga, badiiy asar g'oyasiga uzviy bog'langan bo'ladi. Til ilmining yuksakligi badiiy asarning manguligini belgilaydi. Shuning uchun Badiiy adabiyot- til san'atidir (Konstantin Fedin ta'rifi).

V.M. Jirmunskiy "poetikaning vazifalari" nomli maqolasida har qanday san'at tabiatga tegishli ma'lum bir materialdan foydalanishi, o'ziga xos usullar bilan maxsus ishlov berishi, natijada tabiiy ashyodan estetik ashyo, ya'ni badiiy asar yaratilishini tushuntiradi. Estetik ashyoga aylanmaguncha "tulki" so'zi yovvoyi hayvonligicha qoladi. Uni badiiy matnda insonga nisbatan qo'llaganimizdagina estetik ashyoga aylanadi (seni bilmas ekanman, tulki ekansan-ku!). "Gapirdi" so'zi uslubiy betaraf so'z bo'lib, nutqiy faoliyat fe'li sanaladi. Uning so'zladi, shivirladi, ming'irladi, pichirladi javradi, vaysadi, bayon etdi kabi sinonimlari bo'lib, so'zlash darajasining baland- pastligi, salbiy- ijobiyliigi, tembri nuqtayi nazaridan farq qilib, badiiy uslubda faol. Ammo badiiy matnda maxsus ishlov berish deganda, faqat sinonimlar qatoridan so'z tanlash tushunilmaydi. So'zga ishlov berish deganda, poetik tasvir, badiiy bo'yoq nazarda tutilib, bu boshqa so'zlar qurshovida yuzaga chiqadi: "Uning lablari harakatga kelmasa-da, ko'zlari, kipriklari, qip- qizil yanoqlari gapirar edi". Bu misoldan anglashiladiki, gapirmoq

¹ Samarqand davlat universiteti lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti

² Аристотел. Поэтика. –Тошкент: Г.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриети, 1980. 11-бет.

³ Будагов Р. А. Писатели о языке и язык писателей. - М: Изд-во МГУ, 1984. С.251.



so'zi nutq bilan bog'liq harakatni emas, his- tuyg'u bilan bog'liq holatni ifodalab kelgan. "Nozik" so'zi ham serma'noli bo'lib, materiali nozik (mo'rt, sinadigan), tabassumi nozik (mayin), beli nozik (xipcha, ingichka), mehmonlari nozik (izzattalab), barmog'i nozik (bejirim, latif), fe'li nozik (injiq), ko'ngli nozik (tez xafa bo'ladigan), didi nozik (kamyob narsaga qiziqadigan, nafosatga berilgan), ishi nozik (ehtiyot talab etiladigan), yarasi nozik (og'ir holatda), masalasi nozik (jiddiy), immuniteti nozik (kasallikka tez chalinadigan) ko'rinishi nozik (ozg'indan kelgan), kiyimi nozik (yengil, yupqa) qadami nozik (sekin yuradigan) kabi birikmalarda turli leksemalarga to'g'ridan to'g'ri bog'lanib, o'zi bog'langan so'zning bosh semantik tabiatidan kelib chiqib, turli ma'no ottenkalarini ifodalagan. Shuningdek, ijobiy ma'nodagi so'z xuddi shunday hodisa sababli, ya'ni o'zi birikayotgan so'zning semantik- struktur jihati bilan salbiy ma'no ifodalashi mumkin: "Ishonmagin do'stingga, somon tiqar po'stinga". Bu maqolda ishonma so'zining do'st so'zi bilan birikishi oqibatida "soxta do'st, dushman" kabi do'st so'zining antonimik ma'nosi kelib chiqqan. "Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p" maqolida do'st so'zi bo'lishsiz fe'l, inkor ma'noli so'zga bog'lanmagani uchun doimiy ma'nosini saqlab qolgan. "Ojiz" so'zi shaxs yoki harakat ma'nosini bildirgan so'zlarga tog'ridan to'g'ri bog'lanib, gap tarkibida belgi tushunchasini ifodalaydi: ojiz ayol, ojiz gapirdi kabi. Narsa ma'nosini bildiruvchi aniq otlarga deyarli bog'lana olmaydi. Mavhum tushuncha bildiruvchi so'z bilan birikib kelganda, inkor ma'noni ifodalaydi: ojiz sevgi – kuchsiz sevgi, ojiz fikr – asossiz fikr kabi. Ko'rinadiki, inkor mazmun ifodalash uchun hamma vaqt bo'lishsizlik qo'shimchasini ishlatish o'rinli emas. Bu kabi holatlar badiiy matnda yozuvchining so'z qo'llash uslubi bilan amalga oshiriladi. So'z bir xamir bo'lib, undan nima pishirish, nima tayyorlash yozuvchining poetik mahoratidir. Ta'kidlash kerakki, badiiy matnda so'zning poetik ma'nosi badiiy bo'yoq olmagan so'z bilan kelganda yana-da aniqroq ko'zga tashlanadi. Boisi badiiy tasvir vositasi bo'lib kelmagan so'z badiiy ta'sir vositasi bo'lib kelishi mumkin. Jirmunskiyning ta'kidlaganidek, "Poeziyaning materiali obrazlar emas, emotsiyalar emas, balki so'zdir, poeziya so'z san'atidir, poeziya tarixi so'zchilik tarixidir".⁴ Bu nazariya "So'z va obraz" (1964) kitobi muallifi D.N. Shmelevning "til badiiy adabiyot obrazlari burkanadigan real tashqi shakldir" degan fikri bilan mazmunan juda yaqin edi.

Poetika adabiyot va tilshunoslikka xos bo'lib, ikki soha tarkibidagi tasviriy va ta'siriy vositalar bilan shug'ullanadi. Lingvopoetika- til va adabiyot uyg'unligidir. Har bir filolog bu atamani ikki soha birlashuvi deb tushunsa, tog'ri bo'ladi. Zero badiiylik, obrazlilik kabi xususiyatlarni ochishda ikki soha birday mas'uldir. Lingvopoetikaning lisoniy badiiyati lingvistik tamoyillar orqali ochiladi. Demak, tildan to'g'ri foydalanish, stilistik bahoni o'z o'rnida bera olish poetikaning o'rganish obyekti - badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish sanaladi. Har qanday badiiy asarda yozuvchi tilning kommunikativ vazifasidan emas, ekspressiv vazifasidan foydalanib, asar ta'sir doirasini kengaytiradi. Bu vazifa poetik vazifa deb ham ataladi. Tilning "poetik vazifasi" termini dastlab rus- amerika filologi R.Yakobson tomonidan ishlatilgan bo'lib, u tilning vazifasi badiiy adabiyotda poetik vazifa bajarishligini ta'kidlab o'tgan. R. Yakobson fikricha, "Poetika – bu verbal axborotlarning, umuman, poetik funksiyasini va, xususan, poeziyani lingvistik tadqiq etishdir".⁵

Mustaqillikkacha kuzatilgan ilmiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek filologiyasida badiiy tilni ilmiy o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar xarakteri jihatidan uch turga bo'lingan. Filolog olim B. Umurqulov o'z ilmiy kuzatish va tadqiqotlariga asoslanib, poetik til tadqiqiga doir ishlarni quyidagicha keltiradi:

1. Badiiy adabiyot tilini o'rganishning umumiy masalalariga doir ishlar.
2. Badiiy asar tilini lingvistik aspektda o'rganishga doir ishlar.
3. Badiiy asar tilini adabiyotshunoslik aspektda o'rganishga doir ishlar.⁶

Ko'rinadiki, dastlabki badiiy asar tili va matni bilan bog'liq ishlarda poetik tilning umumnazariy masala - muammolari yoritilgan. Badiiy matn tilini tadqiq etishning ilk yondashuvlari maqola va nazariyalar xarakterida bo'lib, badiiy matn obyekti va predmetlari borasida faqat nazariy xulosalar

⁴ Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. –Л.: Наука, 1977, с.18.

⁵ Якобсон Р. Поэтика масалалари. И.Мирзаев таржимаси. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2004, -Б.9.

⁶ Умурқулов Б. Поэтик нутк лексикаси –Тошкент, Фан 1990. 5-бет



berilgan. I. Sultonov, J. Esonov, A. Ahmedov, A. G'ulomovning ilmiy maqolalarida badiiy til leksikasi, badiiy til xususiyatlari va badiiy tahlil yo'llari haqida fikr va qarashlar o'z ifodasini topgan. Poetik til umumiy xususiyati bilan xalq tilining bir bo'lagi bo'lsa-da, ijodkor intim- kechinmasi va poetik individualligi bilan o'ziga xos xususiy hodisa ham sanaladi. A. Ahmedovning "Badiiy asar tilini o'rganish haqida" maqolasi⁷ tahlil va tanqidiy ruhda yozilgani bilan e'tiborga molik. Muallif maqolada badiiy uslubga xos so'zlar (obrazli, ko'chma ma'noli so'zlar, sinonimlar) ning nutq vaziyatidagi rolini ko'rsatib, badiiy asar tili tadqiqi uchun badiiy leksikaning muhimligini ta'kidlaydi. X. Doniyorov, K. Samadov ("Hamid Olimjonning tildan foydalanishdagi novatorligi"), H. Shukurov (G'ofur G'ulomning tildan foydalanish mahoratiga doir) maqolalari o'tgan asrning 50- yillarida yaratilgan, alohida ijodkor badiiy til xususiyatlariga qaratilgan kichik tadqiqotlar sanaladi. O'tgan asrimizning 90- yillarigacha bo'lgan davrda yaratilgan badiiy asar tili va uslubiga tegishli tadqiqotlarimiz bu sohadagi ilk urinishlar hisoblanadi. O'zbek badiiy adabiyoti tilini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida badiiy til uchun umumiy bo'lgan leksik vositalar tekshirilib, leksikaning semantik, stilistik xususiyatlari tahlil qilinganligi, ammo badiiy nutqning turli formalari: prozaik, poetik nutq uchun xos bo'lgan leksik, stilistik vositalarni, ularning nutq jarayonidagi vazifasini tekshirishga bag'ishlangan ishlar yo'qligi "Poetik nutq leksikasi" asari muallifi tomonidan ta'kidlanadi.

Oybek, A. G'ulomov, M. Husainov, A. Ashrapov, X. Doniyorov kabi tilshunoslarning sa'y- harakati bilan o'tgan asrning 30-40-yillaridan boshlangan badiiy til masalasiga bo'lgan qiziqish asta- sekin rivojlanib, keng ko'lamlı, chuqur tahlilga asoslangan lingvopoetik tadqiqotlarning maydonga kelishiga zamin hozirladi. Tilshunos olim A. G'ulomovning "Badiiy asar tilidagi ba'zi kamchiliklar haqida", "Badiiy adabiyotning tili haqida" nomli maqolalarini badiiy asar tili borasidagi ilk tadqiqotlar sifatida ko'rsatish mumkin. Sh. Abdurahmonovning "Ravshan dostonining badiiy tili haqida", A. Shomaqsudovning Muqumiy ijodi tiliga doir ilmiy fikrlari bilan bu soha doirasi yana-da kengaya bordi. P. Qodirovning quyidagi fikrlari ham buni tasdiqlaydi: "So'nggi yillarda yozuvchilarimizning badiiy tilni o'rganishga intilishi bir qadar oshib boryapti. G'. G'ulom, Oybek, A. Qahhor, Sh. Rashidov, A. Muxtor asarlarining tiliga bag'ishlangan kandidatlik dissertatsiyalari yozildi".⁸ Keyinchalik xuddi shu mavzudagi bahs va muhokamalar 1985- yildan e'tiboran "Sharq yulduzi" jurnalida ham bo'lib o'tganligi va "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida davom ettirilganligini ko'rishimiz mumkin.

X. Abdurahmonov, N. Mahmudov tomonidan badiiy matnning shakllanishida muhim rol o'ynaydigan sinonimlar, paronimlar, antonimlar, eskirgan so'zlar, dialektizmlar, invidual- stilistik neologizmlar, g'ayriodatiy birikmalar, o'ziga "yot" stilda qo'llangan so'zlarni o'z ichiga olgan "So'z estetikasi" ilmiy asari badiiy matn tahlili uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etdi. Bu asarda so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarining badiiy asardagi estetik qiymati misollar orqali ochib berildi.

O'tgan asrning 30- yillarida ko'z ochgan badiiy matn va badiiy til masalasi lingvopoetik jihatdan o'rganish asrimizning boshiga kelib chuqur tadqiq etish yo'lidan bordi. Bu davrga kelib ko'plab tajriba to'plagan badiiy matn lingvopoetikasi jiddiy tadqiqotlarga qo'l ura boshladi. M. Yo'ldoshev Cho'lpon ijodining lingvopoetik xususiyatlariga e'tibor qaratib, 2000- yilda "Cho'lponning badiiy til mahorati" nomli nomzodlik ishini e'lon qildi. Ushbu dissertatsiya ishining dastlabki bobi matn muammosiga bag'ishlanib, tadqiqotchining ilmiy qarashlari batafsil yoritilgan. G. Muhammadjonova tomonidan 2004- yilda himoya qilingan "80-yillar oxiri 90- yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida mustaqilligimizdan oldingi o'zbek she'riyatining xususiyatlari va mustaqillik arafasida poeziya tilidagi o'ziga xos o'zgarishlar ochib berilgan.

Xulosa

Badiiy asar tilini o'rganish va tahlil etish adabiy til boyligi uchun ham muhim asos bo'lib, umumxalq tilining tirikligi va boqiyiligini ta'minlaydi. Badiiy til badiiy asarning g'oyasi va mazmunini obrazli yetkazib beruvchi til bo'lgani bois, "estetik til", "poetik til" maqomini olgan. Badiiy tilni o'rganish

⁷ Ахмедов А. Бадийй асар тилини урганиш хакида. Узбек тили ва адабиети масалалари. 1960. №3. 46-50- бетлар.

⁸ Кодиров П. Тил ва Дил. -Тошкент: Узбекистон, 1972. 40- бет.



orqali xalqning san'ati, madaniyati va xarakteri aniqlanadi. Badiiy asarga kiritilgan har qanday so'z milliy ruh ifodasi bo'lib, yozuvchining mahorati ana shu so'zni tanlagani, topa olganidadir. Badiiy asarga kiritilgan so'z shunday kuchga ega bo'ladiki, uning o'rnini boshqa so'z aslo bosa olmaydi: "Vodiylarni yayov kezganda" (H. Olimjon) misrasi tarkibidagi vodiy o'rniga dala, o'lka, bog', yurt, diyor so'zlaridan birini qo'yish she'rning ta'sirchanligi va struktural tabiatigagina emas, ijodkorning his-tuyg'usi, she'r g'oyasiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asarga kiritilgan so'z shunday kuchga egaki, u ilgari o'zi bilan bog'lanib kelmagan, mazmunan yaqin bo'lmagan so'z bilan ham birikib, poetik mazmun bera oladi "Uning fikri - o'yi shamol shopirgan o'sha atlas ko'ylak qatiga o'ralib ketgan edi" ("Oltin zanglamas"). Ushbu gapda shopirmoq so'zi o'rniga uchirmoq, silkitmoq, tebratmoq yoki selkillatmoq so'zlarini qo'yish mumkin edi, biroq yozuvchi estetik ta'sirni oshirish bilan bir qatorda asar qahramonining holatini tasvirlash maqsadida ushbu so'zni qo'llaydi. Ko'rish mumkinki, badiiy asarda mazmuniy yaqinlikdan ham ko'ra muhimroq bo'lgan hodisa bu poetik yaqinlikdir. Shopirmoq deganda, suyuq ovqat yoki ichimlikni idishdan olib yana qayta quyish harakatining takrori tushuniladi. Adabiyotda bu so'zning to'zitmoq, uchirmoq, tozalamoq, sovurmoq ma'nolari ham ishlatilib, odatda shamol harakatiga nisbatan qo'llaniladi. R. Rahmon va Ahmad ijodida ham buni uchratishimiz mumkin. Ammo "shamol shopirgan atlas ko'ylak" Shuhratning individual poetikasi namunasi. Chunki bundan avval "shopirmoq" so'zi adabiyotda cho'p-xas, somon kabilarning shamol harakati sababli uchish-to'zish holatinigina ifodalagan. Shamolning atlas ko'ylakni shopirishi esa yozuvchining o'ziga xos so'z qo'llash mahorati, poetik ijodi mahsulidir. Badiiy adabiyot tili mana shunday serqirra, sejilo bo'lib, uni o'rganishga bo'lgan qiziqish hamisha tilshunoslar diqqat markazida bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотел. Поэтика. –Тошкент: Г.Гулом номидаги адабиет ва санъат нашриети, 1980. 11-бет.
2. Будагов Р. А. Писатели о языке и язык писателей. - М: Изд-во МГУ, 1984
3. Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. –Л.: Наука, 1977, с.18.
4. Якобсон Р. Поэтика масалалари. И.Мирзаев таржимаси. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2004, - Б.9.
5. Умуркулов Б. Поэтик нутк лексикаси –Тошкент, Фан 1990. 5-бет
6. Ахмедов А. Бадий асар тилини урганиш хакида. Узбек тили ва адабиети масалалари. 1960. №3. 46-50- бетлар.
7. Кодиров П. Тил ва Дил. -Тошкент: Узбекистон, 1972. 40- бет.

